

## MUHAMMAD ALI SOBUNIYNING “SOFVAT AT-TAFOSIR” ASARI HAQIDA

**Yorov Mirabbos Mirto'ra o'g'li**

*O'zbekiston Xalqaro Islom Akademiyasi*

*Islomshunoslik 2-kurs magistranti*

Musannifning mashhur kitoblaridan “Sofvat ut-tafosir” kitobi bundan 40 yilcha avval to'liq besh yil davomida yozilgan bo'lib, 1979-yil nashr qilingan. Hozirgi kungachga tafsir ilmida boshlang'ich ta'lim oluvchilar uchun eng yaxshi kitob va eng yaxshi qo'llanma bo'lib kelmoqda. Musannif kitobni yozishda juda katta mehnat sarflagan. Ko'plab mufassirlarning so'zlarini keltirib o'tgan. O'n beshdan ortiq yirik tafsirlarga murojaat qilgan. Jumladan, “Tafsirut Tabariy”, “Kashshof”, “Qurtubiy”, “Al Ulusiy”, “Ibni Kasir”, “Bahrul muhit” va undan boshqa tafsirlarga ham. Kitobda so'zlarning lug'aviy ma'no tahlillariga to'xtalib o'tilgan. Isroiliyot rivoyatlaridan chetlangan.

Kitob o'z nomi bilan mufassal, muxtasar va oson tartibda yozilishi bilan birga, katta tafsirlardagi asosiy tub ma'noni jaydari tilda tushuntirib ochib berganlar. Musannifning kitob yozishdagi qo'llaydigan uslublari ham shudir.

Birinchidan, kitob mavzuning asosiy maqsadlarni ochib beradi. Keyin oyat bilan yuqoridagi oyatlar orasidagi farqlar aytib o'tiladi. So'ngra oyatdagi bazi so'zlarning ishtiyoq qilib olinishi, lug'aviy ma'nolariga to'xtalib, har birini arabiy she'rlar bilan isbotlab keltiradi. Keyin oyatning nozil bo'lish sababini bayon qiladi. Undan keyin oyatning tafsiri va oxiri oyatning balog'iy, nahviy qoidalari, latif ma'no-mazmuni aytib tugatadi.

Mazkur kitobga katta ulamolar tarafidan taqrizlar yozilgan. Shulardan Alloma shayx Abulhasan an-Nadaviy, imomul akbar Azhar shayxi Abdulhalim Mahmud, fazilatli shayx Muhammad G'azzoliy, Saudiya Arobistoni oliy sudi kengashi raisi shayx Abdulloh ibn Humayd, Robitatul Islom kengashi bosh kotibi doktor Abdulloh Umar, Makkai sharif imomi shayx Abdulloh Xiyoy va boshqalar. Mavritaniya allomalaridan biri bo'lgan shayx Shinqitiy bu kitob borasidagi fikrini aytib shunday deydi: “Sof buloq suvi bilan aralashtirilgan oltin suvi bilan yozib qo'yishga haqli bo'lgan kitobdir”.

Ulamolar tarafidan kitob borasida taqrizlar, bir qancha iliq fikrlar aytilishiga qaramasdan, ba'zilar tarafidan raddiyalar ham bildirilgan. Shayx Sobuniy mana shunday raddiyalar natijasida tafsir sohasidagi izlanishlarini to'xtatib qo'ymadilar, aksincha ularning bu raddiyalari noto'g'ri ekanligini aytib, “Kashful iftiroat fi risolatit tanbihati havla sofvatut tafasir” nomli kitob yozdilar. Kitobda ilmiy dalillar bilan ularning raddiyalari noto'g'ri ekanligini birma-bir isbotlab bergan. Bir so'z bilan aytganda, bu kitob Ahli sunna mufassirlarining tanqidchilarga qarshi himoya qo'llanmasi, deyish mumkin.

Muhammad Aliy Sobuniy hazratlari ushbu asarni yozib shunday muqaddima keltiradilar: Qur'oni Karim turli ilm-ma'rifatlar dengizidir. Qur'oni Karim ilm va ma'rifat turlarini o'z ichiga zahira qilib olgan dengizdir. Ushbu dengizning marjon va durlarini hosil qilishga rag'bat qiladigan kishi uning chuqurlariga sho'ng'ishga majbur bo'ladi.

Qur'on eng buyuk balog'atchilariga va eng yetuk olimlariga qarama-qarshi turishni davom etdi, chunki Qur'on o'z qoldiruvchi mo'jiz kitobdir.

Albatta bugungi kunning olimlariga o'zlarining jiddu-jahdlarini odamlarga tushunish oson bo'lishi uchun yengil, ochiq uslubda ajoyib bayon qilib berilgan biror-bir chigallik, uzaytirib yuborish va takallufsiz tafsir ilmiga o'z harakatlarini sarflashlari, Qur'ondagi ajoyib mo'jizakorliklarni zohir qilib berishlari vojib bo'ladi.

Alloh taolo Kitobi bo'lmish Qur'oni Karim tafsirlarining ichida men yuqorida sifatlagandek tafsirni topmadim. Vaholanki, bugungi kunda bunday tafsirga hojat juda ko'p va odamlar bu to'g'risida so'rab, bu ishga rag'bat qilishar edi. Men bu ishni qoim qilmoqlikka qasd qildim, lekin bu juda mashaqqatli va yo'li qiyin ish edi. Albatta bu ishni qoim qilishda Alloh taolodan yordam so'ragan, Unga tavakkal qilgan holatda va Alloh taolodan meni bu vojib ishni mukammal darajaga yetqazishimni, Alloh taoloning Kitobi Qur'on oyatlarini tushunishga va uning bayonini ziyoda qilib olishda musulmon kishiga yordam beradigan shaklda tayyorlashga meni muvaffaq qilishini so'radim. Men ushbu kitobni "Savfat ut-tafosir" deb nomladim, chunki bu kitob qisqa va tartibli, ochiq, ravshan bo'lishi bilan birgalikda mufassal bo'lgan katta tafsir kitoblarining ayni jamlovchisidir. Va mening barcha orzuim bu asar o'z nomiga munosib bo'lishi va islom ummati bundan foyda olishidir.

Men bu tafsir kitobini yozishda quyidagi uslublardan foydalandim deydi muallif Muhammad Ali Sobuniy rohimahulloh:

Birinchisi: Keltirilgan surai karimaga umumiy ma'no berish va uning asosiy masqadlarini ravshan qilib berishdir.

Ikkinchi: Oldin o'tgan va kelgusi oyatlar o'rtasidagi munosabatlarni bayon qilish.

Uchinchi: Lug'aviy ishtiyoqlarni va arabiy shavohidlarni bayon qilish bilan lug'aviy qismlarga ajratish.

To'rtinchi: Surai karimalarining va oyatlarning nozil bolish sabablarini bayon qilish.

Beshinchi: Yuqoridagi ishlardan keyin oyati karimaning va suraning tafsiriga kirishish.

Oltinchi: Sura va oyatlarda uchragan balog'at qoidalarini aytib o'tish.

Yettinchi: Sura yoki oyatlarda kelgan foydalar va latoiflarni bayon qilish.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki: Yuqorida keltirilgan tafsir qilishning yettita uslubidan foydalanish bu kitobning juda ahamiyatli ekanligidan dalolat beradi. Muallif ushbu kitobni besh yil davomida to'liq yozib bo'lgan.

Allomaning ushbu asaridan boshqa yana tafsir borasida bitgan asarlari ham mavjud. Ularning barchasi o'z uslubi bilan ajralib turadi. Yozilish uslubi bir-biriga o'xshash bo'lgan bu asarlar tolibi ilmlar orasida keng yoyildi. Masalan allomaning "Rovai ul-Bayon" asarini misol qilib keltirishimiz mumkin. "Rovai ul-Bayon"-Qur'ondan hukm oyatlarining tafsiri borasida yozilgan asardir. Bu asar Muhammad Ali Sobuniyning eng mashhur asarlaridan hisoblanib, bizning yurtimizda ham darslik sifatida o'qitiladi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

- 1.1. Muhammad Ali Sobuniy. Sofvatut tafosir. –Bayrut. “Al-maktabatul asriyya”1438/2017. B. 1546
- 1.2. Shinqitiy, Muhammad ibn Muhammad Muxtor ibn Ahmad. Ahkamut jarohatut tibbiyya val asarul mutarattiba a’layha. – Makka: “Maktabatus Sahoba” nashriyoti, 2-nashr, 1991. - 260 b.
- 1.3. Jaloliddin as-Suyutiy. Ahmad Ibrohim va Sa’id ibn Ahmadlar tahqiq qilgan. Tarix al-xulafo. – Bayrut: “Dor al-ilm”, 2010. – 412 b.
- 1.4. Shayx Abdulaziz Mansur. Qur’oni Karim ma’nolarining tarjima va tafsiri. – T.: Toshkent Islom universiteti nashriyot-matbaa birlashmasi, 2004. - 617 b.